

BI37302836

SHARTNOMA № 59

(dori-darmonlar etkazib berish bo'yicha)

111-012
42-52-410

sana: 28.01.22 yil

Shahrisabz sh. Beruniy

"Shahrisabz Farm" MCHJ

nomidan jamiyat boshqaruv raisi

U. Nabiyeva

o'z faoliyatida jamiyat Ustavi bo'yicha xarakat qiluvchi va bundan keyin **"Yetkazib beruvchi"** deb yuritiluvchi bir tomondan va **Шахрисабз шаҳар тиббиёт бирлашмаси** rahbari **M. Hojoev** o'z faoliyatida korxona Ustavi bo'yicha xarakat qiluvchi va bundan keyin **"Sotib oluvchi"** deb yuritiluvchi ikkinchi tomondan o'zlarining imzolari va O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi subektlar faoliyatining shartnomaviy huquqiy bazasi to'g'risida"gi qonuni talablariga asosan ushbu shartnomani quyidagi mazmunda tuzdilar

I. SHARTNOMA MOHIYATI

1.1 **"Yetkazib beruvchi"** **"Sotib oluvchi"** ning bir marotabali yoki yillik talabnomasi asosida dori-darmonlar va psixotrop, giyohvand dori vositalarini xamda prekursorlarni, etil spirtini, tibbiyot maxsulotlarini xamda dorixona sharoitida tayyorlanadigan dori-darmonlarni kelishilgan miqdorlarda va narxlarda yetkazib berishni, **"Sotib oluvchi"** esa shartnomaning ajralmas qismi bo'lgan spetsifikatsiyada ko'rsatilgan dori - darmonlar qiymatini **"Yetkazib beruvchi"** bankdagi tegishli xisob raqamiga kelishilgan muddatda o'tkazib berish shartlarini o'z zimmasiga oladilar.

1.2 **Shartnomaning umumiy qiymati:** **7 606 000.00 so'm**

(Etti million olti yuz olti ming so'm)

1,15 = 661391304 - 7606000 =

1.3 **Tovar qiymati so'mmasida QQS mavjudligi:** **0.00 so'm**

II. MAHSULOT SIFATI

- 2.1 **"Sotib oluvchi"**ga O'zbekiston Respublikasiga farmakologik ro'yxatidan tibbiyotda ishlatishiga ruxsat etilgan sifat markirofka va uramlari farmatseftik va texnik talablariga javob beradigan xamda sifat sertifikatiga ega bo'lgan ishlatish muddati 50% dan kam bo'lmagan dori-darmonlar va tibbiy maxsulotlar yetkazib beriladi.
- 2.2 **"Sotib oluvchi"** yetkazib berilgan tovarlarning qabul qilinishini ta'minlaydigan barcha zarur xarakatlarni amalga oshiradi. Qabul qilinadigan tovarlarni qabul qilish jarayonida sifatini tekshirib, qabul qilishi shart.
- 2.3 **"Sotib oluvchi"** qabul qilingan tovarlarning miqdori, sifatini tekshirish va tovarlarning aniqlangan nomuvofiqliklari va kamchiliklari to'g'risida **"Yetkazib beruvchi"**ni tovar qabul qilingandan so'ng 24 soat ichida yozma ravishda xabardor qilishi kerak.
- 2.4 **"Yetkazib beruvchi"**ning omborxona xududidan tovarlar olib chiqilgach, tovarning sifati va mikdoriga **"Sotib oluvchi"** to'liq javobgar bo'ladi.

III. MAHSULOTLARNING YETKAZIB BERISH SHARTLARI

- 3.1 Maxsulotlar **"Sotib oluvchiga"**ga o'zaro kelishilgan transport vositalarida to'lov talabnomalari va boshqa xarajatlari bilan qo'shib jo'natiladi. Yukni jo'natish bilan bog'liq bo'lgan barcha xarajatlar **"Istemolchi"**ning zimmasiga yuklatiladi **"Istemolchi"** yukni o'z transportida olib ketishi bilan bog'liq sarf xarajatlar bu xisobga kirmaydi.
- 3.2 **"Yetkazib beruvchi"** ijtimoiy ximoyalangan kasalliklar bo'yicha imtiyozga ega bo'lgan bemorlarga imtiyozli retsept asosida dori-darmonlarni yetkazib beradi.

IV. TOPSHIRISH VA QABUL QILISH TARTIBI

- 4.1 **"Sotib oluvchi"** **"Yetkazib beruvchi"** tomonidan taqdim etilgan xisob faktura bo'yicha tovarlarning soni va sifatini tekshirib olganidan so'ng topshirilgan tovarlarning sifati va soni bo'yicha **"Yetkazib beruvchi"** hech qanday javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.
- 4.2 Agar yetkazib berilgan tovarlarning sifati texnik xarakteri standartlarga to'g'ri kelmaydigan taqdirda **"Sotib oluvchi"** tovarni qabul qilmasligi mumkin.
- 4.3 **"Sotib oluvchi"** tovarning sifati, soni yoki standartlari kelishilgan miqdordagi yoki standartdagiga nomuvofiq kelgan taqdirda tovarlarni almashtirishni talab qilishi mumkin.

V. XISOB KITOB QILISH SHARTLARI

- 5.1 Ushbu shartnoma bo'yicha to'lov O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 16 martdagi № 139 sonli qaroriga binoan byudjet tashkilotlarni tovar, (ish, xizmatlar) yetkazib beruvchilar bilan tuzilgan shartnomalar majburiy tarzda g'aznachilik bo'linmalaridan ro'yxatdan o'tkazilib yetkazib berilayotgan dori - darmonlar xaqqini umumiy qiymatini oldindan **30% 2 281 800.00 so'm** pul o'tkazib, qolgan **70% 5 324 200.00 so'm** ni dori - darmon mahsulotlarini **"Sotib oluvchi"**ga to'liq yetkazib berilgandan so'ng 30 (o'ttiz) bank kuni ichida to'lab beradi (oldindan 100% to'lov amalga oshiriladigan xolatlar bundan mustasno).
- 5.2 13 toifadagi bemorlarga beriladigan imtiyozli dori-darmonlarni qiymatini joylardagi shifoatxona ma'muriyati **"Yetkazib beruvchi"**ga oldindan 100 % to'lovni amalga oshirishi shart.
- 5.3 **"Sotib oluvchi"** tomonidan mazkur shartnomani 5.1 bandida ko'rsatilgan muddat ichida olingan dori darmonlarni qolgan qiymatini to'lab bermasa, dori darmon bilan ta'minlash to'xtatiladi.

VI. TOMONLARNING MULKIY JAVOBGARLIGI

- 6.1 Tomonlar ushbu shartnomani qisman yoki to'liq bajarmaganliklari uchun mulkiy javobgardirlar.
- 6.2 Shartnomani 2.1 bandiga asosan **"Yetkazib beruvchi"** tomonidan sotilgan dori - darmon sifatsizligi tegishli xujjatlar bilan tasdiqlansa u holda ta'minotchi sifatsiz dori-darmonni sifatli dori-darmon bilan almashtirib beradi va bu bilan bog'liq bo'lgan barcha xarajatlarni o'z zimmasiga oladi.
- 6.3 Shartnomaning 5.1 bandiga asosan iste'molchi dori-darmonni to'lanmagan qiymatini bir oydan kechiktirib to'lashga yo'l qo'ysa kechiktirib to'lanayotgan so'mmadan har bir kun uchun 0.4 % penya (lekin penya miqdori olingan dori darmonlarning umumiy qiymatini 50% dan oshmasligi lozim) va shartnoma shartlarini bajarmaganliklari uchun 15 % jarima to'laydi.

6.4. "Yetkazib beruvchi" belgilangan muddatlarda yetkazib berilishi lozim bo'lgan dori darmonlarni o'z vaqtida yetkazib bermas. kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyatni barcha qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq penyaning so'mmasi yetkazib berilishi lozim bo'lgan dori - vositalarini umumiy qiymatini 50% dan oshmasligi kerak. Shartnoma shartlarini bajarmaganligi uchun 20% jarima tolaydi.

VII. TOMONLARNING XUQUQ VA MAJBURIYATLARI.

7.1. "Yetkazib beruvchi"ning majburiyatlari:

7.1.1 "Yetkazib beruvchi" "Sotib oluvchidan" buyurtma qabul qilganidan so'ng buyurtmada ko'rsatilgan tovarlarni 25 ish kuni muddatida ushlab turish majburiyatini oladi.

7.1.2 "Yetkazib beruvchi" "Sotib oluvchi"ga buyurtmaning to'lovlar va xujjatlarni rasmiylashtirishni amalga oshirganidan so'ng 5 ish kuni mobaynida sotib oluvchi bilan kelishilgan tartibda tovarlarni yetkazib berish majburiyatlarini oladi.

7.2. "Yetkazib beruvchi"ning huquqlari:

7.2.1 "Yetkazib beruvchi" o'rtada qarzdorlik vujudga kelgan hollarda tovar yetkazib berishni to'xtatish huquqiga ega.

7.3. "Sotib oluvchi"ning majburiyatlari:

7.3.1 "Sotib oluvchi" "Yetkazib beruvchi"ga shartnomada ko'rsatilgan mablag'ni o'z vaqtida to'lab berish majburiyatini oladi.

7.4. "Sotib oluvchi"ning huquqlari:

7.4.1 "Sotib oluvchi" "Yetkazib beruvchi"dan to'lov va xujjatlarni rasmiylashtirishni amalga oshirganidan so'ng tovarlarni yetkazib berishni talab qilish huquqiga ega.

7.4.2 "Sotib oluvchi" "Yetkazib beruvchi"dan tovarlarning sifati standartlar bo'yicha sertifikatlarini talab qilish huquqiga ega.

VIII. FORS-MAJOR XOLATLARI.

8.1. Mazkur shartnoma tuzilgandan keyin, yengib bo'lmagan, tomonlar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan favqulotda tuzdagi vaziyatlar fors-major holatlari yuz bergan, shartnomaviy, shartlar va majburiyatlarni bajarish uchun oldindan ko'rish hamda oqilona chora tadbirlar bilan oldini olish mumkin bo'lmagan holatlar (qonunlar, hukumat qarorlari) tufayli yuz berganda tomonlar bir-birini bu haqida yozma ravishda uch kun ichida xabardor qilsalar javobgarlik istisno etiladi.

IX. SHARTNOMA MUDDATI

9.1 Ushbu shartnoma ikki tomonlama imzolaniib, G'aznachilik bo'linmasidan ro'yxatdan o'tgan kundan boshlab kuchga kiradi va **31 dekabr 2022-yilgacha** amal qiladi.

X. UMUMIY QOIDALAR

10.1 Ushbu shartnoma bir xil kuchga ega bo'lgan ikki nusxada tuzildi. Shartnomaga kiritilishi lozim bo'lgan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar faqat yozma tartibda amalga oshiriladi va tomonlar imzolab muxrlangandan so'ng asosiy shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.

10.2 Ushbu shartnomaga oid lekin shartnomaga kiritilmasdan qolgan barcha xolatlar qolgan O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari asosida hal etiladi.

Tomonlarning yuridik manzili va rekvizitlari:

"Yetkazib beruvchi"


Nomi	"Shahrisabz Farm" MCHJ		
Manzil	Shahrisabz sh. Beruniy ko'chasi 54-uy		
Telefon	97 764 59 36		
X/R	20 20 8000 000 355 090 001	MFO	01182
G'azn. X/R			
Bank	Shahrisabz sh. "Hamkorbank" ATB IFUD 464		
STIR	200 673 352	OKONX	71212

"Sotib oluvchi"

Nomi	Шахрисабз шаҳар тиббиёт бирлашмаси		
Manzil	Шахрисабз шаҳар И.Иули 108-уй		
Telefon	522-23-03		
X/R	100828601040570212005745	IFUD	00014
STIR	207 267 234	OKONX	86100

O'z. Res. Moliya Vazirligi G'aznachiligi

G'azn. X/R	234020030010001010		
Bank	Шахрисабз шаҳар тиббиёт бирлашмаси		
STIR	201 422 919	MFO	00014

M.O.  U. Nabiyeva

XUQUQIY XULOSA

Men Bekmurodova Zulfiya xuquqshunos maslaxatchi listenziya № KS 000150
Шахрисабз шаҳар тиббиёт бирлашмаси va "Shahrisabz Farm" MCHJ
urtasida tuzilgan shartnoma № 59

O'zbekiston Respublikasining 1998yil 29avgustdagi "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarining shartnomaviy xuquqiy bazasi tug'risida" qonuni va "Fuqarolik kodeksi"ning shartnomaviy munosabatlarni tartibga soluvchi moddalariga talablariga javob beradi

Xuquqshunos:

Bekmurodova Zulfiya

28.12.2018 йил

(xuquqshunos listenziya olgan vaqti)

YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA


1. Loyi haning turi: Shartnoma
2. Loyi haning nomi: Dori-darmonlar yetkazib berish to'g'risida.
3. Loyi haning mazmuni: «**Shahrisabz Farm**» MCHJ nomidan jamiyat boshqaruv raisi **U.R.Nabieva** o'z faoliyatida jamiyat Ustavi bo'yicha harakat qiluvchi va bundan keyin «**Yetkazib beruvchi**» deb yuritiladi bir tomondan, ikkinchi tomondan Shahrisabz shahar tibbiyot birlashmasi rahbari M.Norov o'z faoliyatida tashkilot Ustavi bo'yicha xarkat qiluvchi va bundan keyin «**Sotib oluvchi**» deb yuritiladi. Shartnoma predmeti: 59-sonli shartnomaning ajralmas qismi bo'lgan spetsifikatsiyada keltirilgan mahsulotlar bo'lib, Dori darmonni yetkazib berish jami xarajatlari 7606000 so'm hisoblanadi. Shartnomaning amal qilish muddati 2022-yil 28-fevral kuniga qadar.
4. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: Shahrisabz shahar tibbiyot birlashmasi tomonidan 2022-yil 28-yanvar kuni ishlab chiqilgan va dasturga kiritilgan.

Loyiha O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi hamda O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 29-avgustdagi "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi qonuniga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Izoh: Yuriskonsult tomonidan ushbu shartnoma bo'yicha berilgan xulosaning predmetiga hisob-kitob (moliyaviy) ishlari kirmaydi.

Markaz bosh yuriskonsulti

2022-yil «28» yanvar.



R.Raxmonov

2022 yildagi №59 sonli shartnomaga

SPETSIFIKATSIYA

"Yetkazib beruvchi"

Nomi "Shahrisabz Farm" MCHJ
 Manzil Shahrisabz sh. Beruniy ko'chasi 54-uy
 Telefon 97 764 59 36
 X/R 20 20 8000 000 355 090 001 MFO 01182
 G'azn.X/R
 Bank Shahrisabz sh. "Hamkorkbank" ATB IFUD 464
 STIR 200 673 352 OKONX 71212

"Sotib oluvchi"

Nomi Шахрисабз шаҳар тиббиёт бирлашмаси
 Manzil Шахрисабз шаҳар И.Йули 108-уй
 Telefon 522-23-03
 X/R 184 22 8 601 040 5 762 100 1014 IFUD 00014
 STIR 207 267 234 OKONX 86100

O'z. Res. Moliya Vazirligi G'aznachiligi

G'azn.X/R 234 020 030 100 1010
 Bank Шохрисабз шаҳар тиббиёт бирлашмаси банк
 STIR 201 122 919 MFO 00014

1. 1.Sotuvchi quyidagi mahsulotlarni mijozga yetkazadi, mijoz o'z o'rnida mahsulotlar qabul qilib olib to'lovni amalga oshiradi:

№	Mahsulot nomi	O'lch. bir.	Soni	Baza narxi	Vositachi so'mmasi	Ust. %	Sotish narxi	Jami so'mmasi	QQS		QQS ni hisobga olgan holda yetkazib berish qiymati
									%	so'mma	
1	Меропенем 1.0г (цефазолин) Серия:	fl	1000	3 950.00	3 950 000.00	12.00	4 424.00	4 424 000.00	0.00	0.00	4 424 000.00
2	Дротаверин 2мл №10 (но-шпен) Серия:	up	100	8 400.00	840 000.00	5.71	8 880.00	888 000.00	0.00	0.00	888 000.00
3	Метранидазол 0.5%100мл Серия:	fl	65	2 900.00	188 500.00	10.00	3 190.00	207 350.00	0.00	0.00	207 350.00
4	Цефтриаксон 1гр Серия:	fl	450	4 400.00	1 980 000.00	5.39	4 637.00	2 086 650.00	0.00	0.00	2 086 650.00
JAMI:				6 958 500.00				7 606 000.00	0.00		7 606 000.00

Jami: Etti million olti yuz olti ming so'm

2. Ushbu spetsifikatsiya ikki nusxada tuziladi va bir xil yuridik kuchga egadir.

3. Tomonlar imzolari:



"Yetkazib beruvchi"



"Sotib oluvchi"

Бончаров

TIJORAT TAKLIFI

"Shahrisabz Farm" MCHJ

Sizga o'z omboridan xorijda va respublika farmsanoatida ishlab chiqarilgan quyidagi sifatli dori - darmonlarni taklif qiladi.

стр. 1

№	Mahsulot nomi	O'lchov birligi	Miqdori	Narxi
1	Меропенем 1.0г (цефазолин)	fl	1	4 424.00
2	Дротаверин 2мл №10 (но-шпен)	up	1	8 880.00
3	Метранидазол 0.5%100мл	fl	1	3 190.00
4	Цефтриаксон 1гр	fl	1	4 637.00

Barcha dori - darmonlar va tibbiyot vositalari sifat sertifikatlariga ega. * - QQS bilan birga

"Shahrisabz Farm" MCHJ direktori:

U.Nabiyeva



FROM